

BANK AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMLARI

Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi

sultonaliyevazulayho@gmail.com

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlari haqida batafsil tahlil berilgan. Bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tushunchasi va ularning zamonaviy bank faoliyatidagi oʻrni haqida soʻz yuritadi. Shuningdek, ushbu tizimlarning bank ishlarini samarali boshqarish, tezlashtirish va xavfsizligini taʼminlashdagi roli taʼkidlangan. Banklarda keng qoʻllaniladigan asosiy avtomatlashtirilgan tizimlar xususan elektron toʻlov tizimlari, kreditni boshqarish tizimlari hamda xavfsizlik va identifikatsiya tizimlari haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlari (BAAT), elektron toʻlov tizimlari, kredit boshqaruvi, axborot xavfsizligi, moliyaviy barqarorlik, kiberxavfsizlik, sunʼiy intellekt, blokcheyn/

Bugungi kunda bank sohasida axborot texnologiyalarining oʻrni beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlari bank faoliyatini yanada samarali, tezkor va xavfsiz qilishga yordam beradi. Ushbu tizimlar yordamida mijozlarga xizmat koʻrsatish sifatini oshirish, ichki jarayonlarni avtomatlashtirish hamda moliyaviy xatoliklarni kamaytirish mumkin. Shu boisdan, banklarning raqobatbardoshligini taʼminlashda bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlari muhim vositaga aylanmoqda.

Bank bu mamlakatdagi pul mablagʻlarini boshqarish uchun yaratilgan moliyaviy institutdir. Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimining bosh maqsadi jahon talabiga mos keluvchi, rivojlangan milliy kredit tizimiga ega boʻlish, xoʻjaliklar va aholining boʻsh turgan mablagʻlarini jalb qilish, uni samarali taqsimlash asosida aholining talablarini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishish. Bank axborot

tizimi moliyalashtirish va kreditlashning belgilangan shartlariga muvofiq nazorat qilinadigan resurslarni o'zlashtirish, qaytarish va muvozanatlash vositasi bo'lgan yagona dasturiy-texnologik kompleks hisoblanadi. Bank axborot texnologiyasini hisoblash texnikasidan foydalangan holda boshqaruv qarorini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirishni ta'minlash maqsadida ma'lumotlarni to'plash, ro'yxatga olish, uzatish, saqlash va qayta ishlash usullari asosida bank axborotlarini qayta ishlash jarayoniga aytiladi.

Mujassamlashgan bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlari mablag' kiritish va kredit berishning berilgan shartlari bo'yicha nazorat qilinadigan mablag'larni o'zlashtirilish, qaytarilish va muvofiqlashtirilishni jadallashtirish vositasi bo'lgan yagona dasturiy texnologik majmuadan iborat bo'ladi.

Bankda echiladigan boshqaruv vazifalari ko'p jihatli bo'lganligi uchun BAAT ni loyihalashtirishda dekompozitsiya alomatlarini tasniflash muammosi vujudga keladi. Bunday alomatlar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: vazifa, davr, boshqaruv ob'ekti va boshqalar. O'z tarkibining universalligi uchun boshqaruv vazifalari boshqaruv tizimlari dekompozitsiyasining eng keng tarqalgan alomatlaridan biridir. Bankni boshqarish tizimi umuman har qanday boshqarish tizimlari uchun umumiy bo'lgan vazifalarni (rejalashtirish, hisob va nazorat, tahlil va tuzatish kiritishni) bajara turib, ularning boshqaruv tuzilmasining elementlari o'rtasida taqsimlash xususiyatiga ega. Bu vositalar o'zaro chambarchas bog'liq va har doim maqsadli harakterga ega. Bankda hisob va nazorat operatsion, buxgalteriya hisoblaridan iborat, ular birbirlari bilan yaqindan aloqada, chunki tahliliy daraja bank hisobida shaxsiy schyotlar ostida turadi. Har bir ish kuni balansini shakllantirish bilan tugashi sababli shaxsiy schyotlarning holatini o'zgartiruvchi buxgalteriya aks ettiriladi. Statistik hisob ayrish ko'rsatkichlarni uzoq davr ichida o'zgarishi haqida ma'lumotlarni yig'ishga imkon beradi. Tahlil bank boshqaruvining tashqarisida, ham ichkarisida vujudga keladigan iqtisodiy vaziyatni bilib olishga imkoniyat beradigan vazifadan iborat bo'ladi. Yirik banklarda ikkita mustaqil bo'limlar mavjudki, ulardan biri bankning ichki holati tahlilini ta'minlaydi, ikkinchisi tashqi muhitni tahlil

qiladi. Rejalashtirish tahlilning ma'lumotlariga asoslanib, vujudga kelgan vaziyatdan chiqish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ehtimol bo'lgan echimlarni tayyorlaydi.²⁵

Bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining bank faoliyatiga ta'siri juda katta va ko'p qirrali hisoblanadi. Avvalo, ushbu tizimlar bank ishining tezligini sezilarli darajada oshiradi. An'anaviy qo'lda bajariladigan ko'plab jarayonlar – mijozlarning hisob-raqamlarini yuritish, to'lovlarni amalga oshirish, hujjatlarni rasmiylashtirish va hisob-kitoblarni tekshirish endilikda avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida ancha tez va samarali bajariladi. Bu holat mijozlar uchun xizmat ko'rsatish jarayonida kutish vaqtini qisqartiradi, ular o'z so'rovlarini tez va oson bajarilishiga ishonch hosil qiladi. Natijada mijozlar bank xizmatidan yanada mamnun bo'lib, bank bilan ishlash istagi ortadi. Shuningdek, xodimlar uchun kundalik ishlar sezilarli darajada osonlashadi, ular murakkab va takroriy vazifalarni avtomatlashtirilgan tizimlarga topshirib, ko'proq strategik va muhim masalalarga e'tibor qaratish imkoniga ega bo'ladi. Shu tarzda, ish samaradorligi va sifat hamda tezlik birgalikda oshadi.

Ikkinchidan, bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlari yordamida xatoliklarning oldini olish va firibgarlik holatlarini kamaytirish ancha osonlashadi. Qo'lda bajariladigan operatsiyalarda inson omili tufayli xatolar yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'lsa-da, avtomatlashtirilgan tizimlar aniq algoritmlar asosida ishlaydi, bu esa xatolik darajasini sezilarli darajada pasaytiradi. Bundan tashqari, tizimlarda turli xil nazorat va tekshirish mexanizmlari mavjud bo'lib, ular har qanday shubhali yoki noaniq harakatlarni darhol aniqlashga yordam beradi. Bu bankning moliyaviy barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, tizimlar mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarini maxfiyligini ta'minlash uchun zamonaviy xavfsizlik standartlari va kriptografik usullar bilan jihozlangan. Bu esa mijozlar ma'lumotlarining noqonuniy foydalanilishidan himoyalanihini kafolatlaydi. Natijada bank va uning mijozlari o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi. Uchinchidan, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari banklarga o'z biznes jarayonlarini yanada chuqur va batafsil tahlil qilish imkonini beradi. Tizimlar yordamida banklar o'z mijozlari faoliyatini, to'lov va kredit jarayonlarini doimiy monitoring qilib

²⁵ R. X. Alimov, O' T. Xayitmatov, A. F. Xakimov, G. T. Yulchieva, O. X. Azamatov, U. A. Otajanov "Axborot tizimlari" O'quv qo'llanma - T.: TDIU. 2013

boradi. Shu bilan birga, bozor holati va raqobatchilar faoliyatini o'rganish uchun keng qamrovli ma'lumotlar bazasini shakllantirish mumkin. Bu esa bank rahbarlariga tez va asosli qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Misol uchun, kredit berish yoki investitsiya qilish masalalarida tizimlarning tahliliy imkoniyatlari aniq xavf-xatarlarni oldindan ko'rishga va ularga qarshi chora ko'rishga xizmat qiladi. Shu tariqa, bank o'z resurslarini yanada samaraliroq taqsimlaydi va bozordagi o'z o'rnini mustahkamlaydi. Bu holat bankning raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi, chunki raqobat kuchayib borayotgan iqtisodiy muhitda tezkor va sifatli qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlari bankning ichki jarayonlarini optimallashtirish, mijozlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatish, xavfsizlikni ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish yo'lida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ularning samarali ishlashi bankning barqaror rivojlanishi va bozorda muvaffaqiyat qozonishining kafolatidir. Texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotganligi sababli, tizimlarni doimiy ravishda yangilab borish zarurati mavjud. Bu esa qo'shimcha xarajatlar va murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarbdir. Bank ma'lumotlari himoyasi uchun yuqori darajadagi texnologik yechimlar va choralar zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlari zamonaviy bank faoliyatining asosi hisoblanadi. Ular bank ish jarayonlarini tezlashtirish, samaradorlikni oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, tizimlarni joriy etishda texnologik va moliyaviy muammolarni hisobga olish zarur.

Kelajakda avtomatlashtirilgan tizimlar yanada rivojlanib, sun'iy intellekt, blokcheyn kabi innovatsiyalar bilan boyitilishi kutilmoqda. Bu esa bank sektorining raqobatbardoshligini yanada oshiradi hamda iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. X. Alimov, O'. T. Xayitmatov, A. F. Hakimov, G. T. Yulchieva, O. X. Azamatov, U. A. Otajanov "Axborot tizimlari" O'quv qo'llanma - T.: TDIU. 2013

2.Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010. - 756 b

3.O‘lmasov Ahmadjon. Iqtisodiy bilim asoslari: (Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik) -T .:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.- 144 b

5. Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T.

6.Zulayxo S. The role and importance of cognitive technology in digital economy //Eurasian Journal of Entrepreneurship and pedagogy. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 20-21.

7.Sultonaliyeva Z. ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15377681> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 115-118.